



MAMLAKATDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHNING EKONOMETRIK TAHLILI

ECONOMETRIC ANALYSIS OF INCREASING EMPLOYMENT IN THE COUNTRY

¹Ostonov Muhriddin
Bahridin o'g'li,
²Boybosinova Shaxlo
Meles qizi

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Sug'urta ishi" kafedrası
katta o'qituvchisi, ²TDIU, "Soliqlar va budget hisobi" fakulteti "Soliqlar va
soliqqa tortish" ta'lim yo'nalishining 2-bosqich talabasi

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada O'zbekistonda bandlik sohasining amaldagi holati, xususan, mehnat bozorining rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari, bandlik va ishsizlik darajalari hamda hududlar kesimidagi farqlar statistik metodlar yordamida tizimli tarzda tahlil qilindi. Shuningdek, bandlikka ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, ijtimoiy va demografik omillar kompleks yondashuv asosida sintez qilinib, ularning o'zaro bog'liqligi va ta'sir darajasi baholandi. Tadqiqot jarayonida bandlikka bevosita ta'sir etuvchi asosiy o'zgaruvchilar aniqlanib, ularning mehnat bozori barqarorligini ta'minlashdagi o'rni yuzasidan ilmiy xulosalar, fikr va mulohazalar bayon etildi.

Eng. - This article provides a systematic analysis of the current state of employment in Uzbekistan, focusing in particular on the key indicators of labor market development, employment and unemployment rates, and regional disparities, using statistical methods. In addition, the economic, social, and demographic factors influencing employment were synthesized through a comprehensive approach, and their interrelationships and degrees of impact were assessed. During the study, the main variables directly affecting employment were identified, and scientific conclusions, insights, and evaluations regarding their role in ensuring labor market stability were presented.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ YaIM, soliq, tug'ilish darajasi, foiz stavkasi, ishchi kuchi, bandlik.
❖ GDP, tax, birth rate, interest rate, labor force, employment.

Kirish.

O'zbekistonda aholi bandligini oshirish masalasi barcha rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani kabi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim va dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Aholi bandligi darajasining oshishi nafaqat fuqarolarning turmush darajasi va daromadlarini yaxshilashga, balki kambag'allikni qisqartirish hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu bois

mamlakatimizda mehnat bozorini rivojlantirish, ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash hamda ishsizlik darajasini pasaytirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-12-sonli qarorida hududlarda aholi bandligini

ta'minlash, ularni tadbirkorlikka jalb qilish va daromadlarini oshirish bo'yicha yangi yondashuvlarni keng joriy qilish, mahallalarda ehtiyojmand aholi qatlami bilan manzilli ishlashni tashkil etish va ijtimoiy xizmatlar ko'lamini kengaytirish, mavjud resurslar, imtiyozlar va preferensiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish va kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilangan [1]. Ushbu qaror doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, kasb-hunarga o'qitish, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini takomillashtirish, shuningdek, hududiy bandlik dasturlarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda mehnat bozorida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholini doimiy ish bilan ta'minlashga qaratilgan strategik chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda davlat va xususiy sektor hamkorligi, investitsiya muhitini yaxshilash hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi ish o'rinlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

P.Radha, J.Nirubarani va S.Mekala (2024) fikriga ko'ra, ishsizlikni kamaytirish va bandlikni oshirishda kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada soliq imtiyozlari, kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirish hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ish o'rinlari yaratishning asosiy omillari sifatida ko'rsatadi [2]. Mazkur instrumentlarning uyg'unlashuvi bandlik siyosatining samaradorligini oshiradi.

F.Mascolo (2024) fikriga ko'ra, faol mehnat bozor siyosatlari bandlikka bir xil ta'sir ko'rsatmaydi. Tadqiqot natijalari ayrim dasturlar ishga joylashish va daromadlarni oshirishga ijobiy ta'sir qilgan bo'lsa, boshqa choralalar sezilarli natija bermaganini ko'rsatadi [3]. Mualliflar bandlik siyosatini ishlab

chiqishda hududiy va ijtimoiy xususiyatlarni inobatga olish zarurligini ta'kidlaydi.

Joshua E. Chukwuere (2024) fikriga ko'ra, ishsizlik darajasini tushuntirish va bashorat qilishda kompleks ekonometrik modellar muhim ahamiyatga ega. Olim rivojlanayotgan mamlakatlarda ishsizlikka iqtisodiy o'sish, demografik o'zgarishlar, ta'lim darajasi va texnologik taraqqiyot kabi omillar bevosita ta'sir ko'rsatishini qayd etadi [4]. Uning fikricha, ushbu omillarni integratsiyalashgan modellar orqali tahlil qilish bandlik siyosatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

G.Razikova (2025) ta'kidlashicha, O'zbekistonda aholi bandligini oshirish uchun mehnat bozorini institutsional jihatdan isloh qilish muhimdir [5]. Muallif kasb-hunar ta'limini modernizatsiya qilish, tadbirkorlikni rag'batlantirish va davlat bandlik dasturlarini optimallashtirish zarurligini statistik va ekonometrik tahlillar asosida asoslab beradi.

X.Azimova (2025) fikriga ko'ra, aholi bandligi nafaqat iqtisodiy o'sish va daromadlarni oshirish omili, balki ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta'minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm hisoblanadi [6]. Muallif bandlik darajasining oshishi jamiyatda ijtimoiy tenglikni mustahkamlashga xizmat qilishini va kambag'allikni qisqartirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada analiz va sintez usullaridan foydalangan holda aholi bandligiga ta'sir etuvchi asosiy ko'rsatkichlar aniqlanadi. Mazkur tadqiqot doirasida ekonometrik tahlil usulidan foydalanish orqali ishsizlikning asosiy sabab va omillari aniqlanadi. Tadqiqotda ish beruvchilar (employers), yalpi ichki mahsulot (GDP), soliq (tax), to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI), qishloq xo'jaligi darajasi (agriculture rate) va ishchi kuchi (labor force) asosiy o'zgaruvchilar sifatida ko'rib chiqiladi. Ushbu o'zgaruvchilar mamlakatda ishsizlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Analiz va

sintez usullari yordamida o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqliklar aniqlanib, ularning bandlik darajasiga ta'sir darajasi baholanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ushbu tadqiqotda Bandlikga ta'sir qiluvchi bir nechta omillarni imperik tahlil qilindi. Tahlil davri 2013-2023-yillarni o'z ichiga oladi. Tadqiqot natijasida ko'p omilli reggressiya modeli tuzildi:

$$Employment_t = \beta_0 + \beta_1 GDP_t + \beta_2 Tax_t + \beta_3 FDI_t + \beta_4 Agriculture_t + \beta_5 Birth_t + \beta_6 LaborForce_t + \epsilon_t$$

Bunda:

Employment – Bandlik darajasi

GDP – Yalpi ichki mahsulot

Tax – Soliq yuklamasi/soliq tushumlari

FDI – To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya

Agriculture – Qishloq xo'jaligi ulushi

Birth – Tug'ilish darajasi

Labor_force – mehnat resurslari

Mazkur tadqiqotda bandlik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida Stata dasturiy ta'minotida bir nechta statistik va ekonometrik tahlillar amalga oshirildi. Dastlab o'zgaruvchilar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash uchun korrelyatsiya tahlili o'tkazildi, so'ngra ko'p omilli reggressiya modeli baholandi.

Tadqiqotda foydalanilgan barcha o'zgaruvchilar bo'yicha tavsifiy statistika natijalari 1-jadvalda keltirilgan. Tahlil natijalari 11 yillik kuzatuvni o'z ichiga olib, bu davr uchun asosiy makroiqtisodiy va demografik natijalarni aniqlash imkonini beradi.

Descriptive Statistics

Variable	Obs	Mean	Std.Dev.	Min	Max
Employers	11	12.209	.019	12.171	12.232
GDP	11	7.805e+10	1.268e+10	5.870e+10	1.026e+11
Tax	11	12.628	1.15	10.369	13.8
FDI	11	.007	.004	.003	.017
Agriculture	11	3.969	2.083	.266	6.439
Birth	11	24.666	1.367	22.989	26.524
Labor force	11	60.757	.312	59.89	61.143

Bandlik darajasi (Employers) bo'yicha o'rtacha qiymat 12,209 birlikni tashkil etib, standart og'ishning nisbatan past darajada (0,019) ekani aniqlandi. Mazkur holat tahlil qilinayotgan davr mobaynida bandlik darajasining barqaror dinamikaga ega bo'lganini ko'rsatadi. Shuningdek, minimal (12,171) va maksimal (12,232) qiymatlar orasidagi farqning kichikligi bandlik ko'rsatkichida keskin tebranishlar kuzatilmaganini tasdiqlaydi.

Yalpi ichki mahsulot o'rtacha $7,805 \times 10^{10}$ miqdorda shakllangan bo'lib, standart og'ishining nisbatan yuqori bo'lishi ($1,268 \times 10^{10}$) iqtisodiy o'sish sur'atlarining davrlar kesimida sezilarli farqlanganligini anglatadi. YalMning minimal va maksimal qiymatlari

o'rtasidagi tafovut iqtisodiy faollikning notekis rivojlanganligini ko'rsatadi.

Soliq ko'rsatkichi (Tax) o'rtacha 12,628 ni tashkil etib, 1,15 birlik standart og'ish bilan tavsiflanadi. Ushbu holat soliq yuklamasi davr davomida ma'lum darajada o'zgarib turganini, biroq keskin fiskal tebranishlar kuzatilmaganini anglatadi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) o'rtacha 0,007 birlikni tashkil etgan bo'lib, minimal (0,003) va maksimal (0,017) qiymatlar investitsiya oqimlarining nisbatan cheklangan va beqaror bo'lganligini ko'rsatadi. Bu holat investitsiyalarning bandlikka ta'siri muhim, biroq hajman cheklangan bo'lishi mumkinligini anglatadi.

Qishloq xo'jaligi ulushi (Agriculture) o'rtacha 3,969 ni tashkil etib, yuqori standart

og'ish (2,083) bilan tavsiflanadi. Bu iqtisodiyotda qishloq xo'jaligi sektorining ulushi davrlar kesimida sezilarli darajada o'zgarib borganini ko'rsatadi va strukturaviy o'zgarishlar mavjudligini tasdiqlaydi.

Tug'ilish darajasi (Birth) o'rtacha 24,666 birlik bo'lib, past standart og'ish (1,367) demografik ko'rsatkichlarning nisbatan barqaror ekanligini bildiradi. Tug'ilish darajasining barqarorligi mehnat resurslari taklifining uzoq muddatda kengayishiga zamin yaratadi.

Mehnat resurslari (Labor force) o'rtacha 60,757 birlikni tashkil etib, juda past standart og'ish (0,312) bilan tavsiflanadi. Bu mehnat bozorida ishchi kuchi taklifi barqaror ekanligini va qisqa muddatda keskin demografik siljishlar kuzatilmaganini ko'rsatadi.

Matrix of correlations

Variables	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)	7)
(1) Employers	1.000						
(2) GDP	-0.302	1.000					
(3) Tax	-0.297	-0.011	1.000				
(4) FDI	0.058	0.017	-0.218	1.000			
(5) Agriculture	-0.732	0.546	0.623	-0.185	1.000		
(6) Birth	0.643	0.401	-0.135	0.109	-0.171	1.000	
(7) Labor_force	-0.592	0.266	-0.123	-0.641	0.293	-0.390	1.000

Bandlik darajasi bilan GDP o'rtasida manfiy, ammo o'rtacha darajadagi korrelyatsiya aniqlangan ($r = -0.302$). Ushbu natija iqtisodiy o'sish har doim ham qisqa muddatda bandlikning oshishiga olib kelmasligini, ya'ni o'sishning kapital sig'imli yoki texnologik xarakterga ega bo'lishi mumkinligini anglatadi.

Soliq ko'rsatkichi (Tax) bandlik bilan manfiy bog'liqlikni namoyon etadi ($r = -0.297$). Bu soliq yukining oshishi qisqa muddatda ish beruvchilar faolligini cheklashi va bandlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, GDP va Tax o'rtasidagi bog'liqlik juda past ($r = -0.011$) bo'lib, fiskal yuklamaning iqtisodiy o'sishga nisbatan mustaqil shakllanganini bildiradi.

Umuman olganda, tavsifiy statistika natijalari tanlangan davrda bandlik darajasi nisbatan barqaror bo'lganligini, iqtisodiy o'sish va sektorlar tarkibida esa sezilarli o'zgarishlar yuz berganligini ko'rsatadi. Ushbu holat keyingi regressiya tahlilida iqtisodiy va fiskal omillarning bandlikka ta'sirini aniqlash uchun empirik asos yaratadi.

1. Korrelatsiyon tahlil.

O'zgaruvchilar o'rtasidagi dastlabki bog'liqliklarni aniqlash maqsadida korrelyatsiya matritsasi tuzildi. Natijalar bandlik darajasi (Employers) va tanlangan makroiqtisodiy hamda demografik ko'rsatkichlar o'rtasida turli yo'nalishdagi bog'liqliklar mavjudligini ko'rsatadi.

FDI va bandlik o'rtasidagi bog'liqlik ijobiy, biroq juda past darajada ($r = 0.058$). Bu xorijiy investitsiyalar bandlikka bevosita emas, balki bilvosita – texnologiyalar, ishlab chiqarish samaradorligi yoki eksport salohiyati orqali ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

Bandlik va qishloq xo'jaligi ulushi (Agriculture) o'rtasida kuchli manfiy korrelyatsiya aniqlangan ($r = -0.732$). Ushbu natija iqtisodiyotda qishloq xo'jaligi ulushining yuqoriligi sanoat va xizmatlar sektorlarida bandlik imkoniyatlarini cheklashi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Agriculture va GDP o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik ($r = 0.546$) iqtisodiy o'sishning ma'lum davrlarda agrar sektor hisobiga ta'minlanganligini anglatadi.

Demografik omillardan biri bo'lgan Birth bandlik bilan kuchli ijobiy bog'liqlikka ega ($r = 0.643$). Bu uzoq muddatda mehnat resurslari taklifi kengayishi orqali bandlik darajasining oshishiga zamin yaratishini ko'rsatadi.

Labor force va bandlik o'rtasida manfiy bog'liqlik mavjud ($r = -0.592$). Ushbu holat mehnat resurslari taklifi o'sishi ish o'rinlari yaratish sur'atlaridan tezroq bo'lgan davrlarda bandlik darajasiga bosim yuzaga kelishini anglatadi.

Umuman olganda, korrelyatsiya tahlili natijalari bandlik darajasining fiskal va

demografik omillar bilan murakkab va ko'p yo'nalishli bog'liqlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Ushbu natijalar keyingi regressiya tahlilida o'zgaruvchilar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini chuqurroq baholash zarurligini asoslaydi.

2. Chiziqli regressiyon tahlil.

Bandlik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida ko'p omilli chiziqli regressiya modeli baholandi. Model OLS usuli yordamida 11 ta kuzatuv asosida baholangan bo'lib, natijalar modelning umumiy statistik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Linear regression

Employers	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
P	0	0	0.56	.605	0	0	
Tax	-.002	.002	-1.29	.268	-.008	.003	
FDI	-2.563	.503	-5.09	.007	-3.959	-1.166	***
Agriculture	-.005	.001	-3.78	.019	-.008	-.001	**
Birth	.004	.002	2.46	.07	-.001	.008	*
Labor_force	-.046	.009	-5.17	.007	-.07	-.021	***
Constant	14.947	.571	26.19	0	13.362	16.531	***
Mean dependent var		12.209	SD dependent var		0.019		
R-squared		0.985	Number of obs		11		
F-test		45.088	Prob > F		0.001		
Akaike crit. (AIC)		-91.054	Bayesian crit. (BIC)		-88.666		

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

Modelning moslashuv darajasi juda yuqori bo'lib, R-squared = 0.985 ni tashkil etadi. Bu tanlangan mustaqil o'zgaruvchilar bandlik darajasidagi o'zgarishlarning qariyb 98,5 foizini tushuntirib bera olishini anglatadi. F-statistika natijalari ham modelning umumiy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi ($F = 45.09$; $\text{Prob} > F = 0.001$).

GDP koeffitsienti statistik jihatdan ahamiyatli emas ($p = 0.605$). Ushbu natija iqtisodiy o'sishning qisqa muddatda bandlik darajasiga bevosita ta'siri mavjud emasligini ko'rsatadi. Bu holat iqtisodiy o'sishning kapital sig'imli yoki texnologik xarakterga ega bo'lishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Soliq ko'rsatkichi (Tax) manfiy ishoraga ega bo'lsa-da, statistik jihatdan ahamiyatli emas (coef = -0.002; $p = 0.268$). Bu soliq yukining bandlikka ta'siri mavjud bo'lishi

mumkinligini, biroq tanlangan davr va ma'lumotlar kesimida ushbu ta'sir aniq statistik dalillar bilan tasdiqlanmaganini ko'rsatadi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) kuchli va statistik jihatdan yuqori darajada ahamiyatli manfiy ta'sir ko'rsatgan (coef = -2.563; $p = 0.007$). Ushbu natija FDI oqimlarining bandlikka qisqa muddatda salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini anglatadi, ya'ni xorijiy investitsiyalar asosan texnologik modernizatsiya va mehnatni tejovchi ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'lishi ehtimoli mavjud.

Qishloq xo'jaligi ulushi (Agriculture) bandlikka nisbatan sezilarli va statistik jihatdan manfiy ta'sir ko'rsatgan (coef = -0.005; $p = 0.019$). Bu iqtisodiyotda agrar sektor ulushining yuqoriligi bandlikning umumiy

darajasini pasaytirishi yoki bandlik sifati past bo'lishi mumkinligini anglatadi.

Tug'ilish darajasi (Birth) bandlikka ijobiy ta'sir ko'rsatib, 10 foizlik ahamiyat darajasida statistik ahamiyatli hisoblanadi (coef = 0.004; p = 0.070). Ushbu natija demografik omillar bandlikka ko'proq uzoq muddatli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Mehnat resurslari (Labor force) bandlikka kuchli va statistik jihatdan yuqori darajada ahamiyatli manfiy ta'sir ko'rsatgan (coef = -0.046; p = 0.007). Bu mehnat taklifining ish o'rinlari yaratish sur'atlaridan tezroq o'sishi bandlik darajasiga bosim o'tkazishini ko'rsatdi.

Doimiy had (Constant) ijobiy va yuqori darajada statistik ahamiyatli bo'lib, modelning barqarorligini tasdiqlaydi. Akaike (AIC) va Bayesian (BIC) axborot mezonlarining past

qiymatlari modelning nisbatan yaxshi spesifikatsiyaga ega ekanligini ko'rsatdi.

Umuman olganda, regressiya natijalari bandlik darajasiga fiskal omillardan ko'ra ko'proq investitsiyalar hajmi va demografik omillar kuchli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Ushbu natijalar qisqa muddatli soliq siyosatini ishlab chiqishda soliq imtiyozlari va investitsiya rag'batlarining oldindan chuqur tahlil qilinishi zarurligini asoslaydi.

3. Ko'p omilli korrelyatsiya tahlili (VIF analysis)

Regressiya modelida mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida ko'p omilli korrelyatsiya tahlilini amalga oshirish maqsadida Variance Inflation Factor (VIF) testi o'tkazildi. Ushbu test regressiya koeffitsientlarining barqarorligi va ishonchliligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Variance inflation factor

	VIF	1/VIF
Labor force	5.516	.181
Agriculture	5.301	.189
GDP	4.942	.202
Tax	3.575	.28
Birth	3.567	.28
FDI	3.457	.289
Mean VIF	4.393	.

Natijalarga ko'ra, barcha o'zgaruvchilar bo'yicha VIF qiymatlari 10 dan past bo'lib, bu kuchli ko'p omilli korrelyatsiya mavjud emasligini ko'rsatadi. Model bo'yicha o'rtacha VIF = 4,393 ni tashkil etadi, bu esa iqtisodiy tadqiqotlar uchun qabul qilinadigan daraja hisoblanadi.

Eng yuqori VIF qiymati Labor force (5,516) va Agriculture (5,301) o'zgaruvchilarida kuzatilgan. Ushbu o'zgaruvchilar boshqa mustaqil omillar bilan ma'lum darajada bog'liqlikka ega ekanligi aniqlandi.

GDP (4.942), Tax (3.575), Birth (3.567) va FDI (3.457) o'zgaruvchilari bo'yicha VIF ko'rsatkichlari ham me'yoriy chegaralarda bo'lib, ushbu omillar modelda mustaqil tarzda ishtirok etishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, VIF qiymatlarining nisbatan yuqori bo'lishi regressiya modelida o'zgaruvchilarning ortiqcha takrorlanishi yoki kuchli chiziqli bog'liqlik mavjud emasligini ko'rsatadi.

Deskriptiv statistika, korrelyatsiya matritsasi, regressiya natijalari hamda diagnostika testlari (VIF va Breusch-Pagan) asosida tahlil shuni ko'rsatadiki:

1. Model $R^2 = 0.985$ bilan juda yaxshi moslashgan.

2. Mustaqil o'zgaruvchilar orasida kuchli multikollinearlik mavjud emas (Mean VIF = 4.393).

3. Heteroskedastiklik aniqlanmadi (Breusch-Pagan p > 0.68).

Bu holatlar regressiya natijalarining iqtisodiy va statistik jihatdan ishonchli ekanligini ta'kidlaydi hamda bandlik darajasiga ta'sir etuvchi omillarni barqaror baholash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar.

Ushbu tahlillar O'zbekiston Respublikasida bandlik darajasiga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy, fiskal va demografik omillarni aniqlash hamda baholashga qaratildi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Soliq tizimi va fiskal omillar:

Regressiya natijalari soliq ko'rsatkichi (Tax) bandlikka salbiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatdi, ammo bu ta'sir statistik jihatdan ahamiyatli emas. Ushbu holat qisqa muddatli soliq siyosatini ishlab chiqishda soliq yukini oldindan tahlil qilish va bandlikka salbiy ta'sirini kamaytirish zarurligini ko'rsatadi.

2. Investitsiyalar va iqtisodiy o'sish:

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) bandlik darajasiga sezilarli manfiy ta'sir ko'rsatgan. Bu shuni anglatadiki, xorijiy

investitsiyalar ko'pincha texnologik modernizatsiya va kapital talab qiluvchi ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'lib, qisqa muddatda ish o'rinlarini yaratishga bevosita hissa qo'shmasligi mumkin. Shu bilan birga, GDP koeffitsienti statistik jihatdan ahamiyatli emas, ya'ni iqtisodiy o'sishning bandlikka ta'siri tanlangan davrda sezilarli bo'lmagan.

3. Qishloq xo'jaligi (Agriculture):

Bandlikka statistik jihatdan ahamiyatli manfiy ta'sir ko'rsatdi. Bu iqtisodiyotning agrar sektorga qaramligi sanoat va xizmatlar sektoridagi ish o'rinlari yaratish imkoniyatlarini cheklashi mumkinligini bildiradi.

4. Demografik omillar:

Tug'ilish darajasi (Birth) ijobiy ta'sir ko'rsatib, bandlik darajasining uzoq muddatli rivojlanishida muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Mehnat resurslari (Labor force) esa kuchli manfiy ta'sir ko'rsatgan, ya'ni ishchi kuchining o'sishi mavjud ish o'rinlaridan tezroq bo'lganda bandlik darajasiga bosim yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-12-sonli qarori.
2. Radha, P., Nirubarani, J., & Mekala, S. (2024). A Study on Addressing Unemployment: Strategies and Policies for Enhancing Job Creation. *NPRC Journal of Multidisciplinary Research*, 1(9), 96-105.
3. Mascolo F. et al. From Average Effects to Targeted Assignment: A Causal Machine Learning Analysis of Swiss Active Labor Market Policies //arXiv preprint arXiv:2410.23322. – 2024.
4. Chukwuere J. E. Conceptualizing predictive conceptual model for unemployment rates in the implementation of Industry 4.0: Exploring machine learning techniques //arXiv preprint arXiv:2403.13536. – 2024.
5. Razikova G. Sh. Statistical Research on Ways to Increase Employment of the Population of the Republic of Uzbekistan // *Central Asian Journal of Innovations in Tourism, Management and Finance*. – 2025. – Vol. 6, No. 3.
6. Xurshida Azimova. (2025). Aholi ish bilan bandligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati. «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» Jurnal, 3(7), 11-16.